

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**



**A.QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT  
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**“YANGI O‘ZBEKISTONDA MAKTABGACHA  
TA’LIM: KECHA, BUGUN VA ERTAGA”  
MAVZUSIDAGI Respublika miqyosidagi  
ilmiy-nazariy anjumani materiallari**

**I**

**Jizzax - 2023**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**A.QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA**  
**UNIVERSITETI**

**“YANGI O‘ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TA’LIM:  
KECHA, BUGUN VA ERTAGA” MAVZUSIDAGI**

**Respublika miqyosidagi ilmiy-nazariy anjumani materiallari**

**1-QISM**

**Жиззах- 2023**

bo'lishadi va ularning hayot haqidagi bilimlari hamda hayotiy qoidalari shu tasavvurlar asosida qayd qilinadi va rivoj topadi. E.Sepir madaniyatni mazkur jamiyatning ish yuritishi va fikrlashi uchun asos bo'ladigan narsa sifatida ta'riflagan. Ishga solingan tarkibiy qismlar, o'rganish maqsadlari va fan, madaniyatning turli sohalaridagi tadqiqotchilar mansub bo'lgan maktablarga qarab madaniyatning mazmuni va tuzilishi turlicha talqin qilingan. Madaniyat ta'rifiga nisbatan ijtimoiy yondashuv ushbu holatning tabiat, alohida shaxs bilan cheklanib qolmaydigan, balki muloqot qilib turadigan odamlar guruhiga xos bo'lgan biologik va fiziologik jihatlardan tamomila o'zgacha holat tarzida ko'rib chiqilishiga asoslanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mamatov A. – Zamonaviy lingvistika. Toshkent, 2018.
2. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab.// O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2012. – № 5.
3. Сабитова З.К. Лингвокультуроология: учебник. – М.: Флинта: Наука, 2013.

## **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING BADIY VA IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK VOSITALARI**

*Yoriqulova Gulnigor Soxibjon qizi*  
*BuxDU Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Hozirgi rivojlanib borayotgan pedagogik texnika va texnologiyalar, ilm-fan taraqqiyotining yuksalayotgan bir davrida, o'sib kelayotgan yosh avlodga alohida e'tibor qaratilib, ularning bilim salohiyatini rivojlantirish borasida bir qancha ezgu va samarali ishlar olib borilmoqda. Bolalarning badiiy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiruvchi bir qator yangi dasturlar joriy etilmoqda. Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy va ijodiy qobiliyatlarini

rivojlantirishning pedagogik vositalari haqida soʻz boradi.

**Kalit soʻzlar:** *maktabgacha taʼlim tashkiloti, innovatsiya, pedagogik texnologiya, kreativlik, kommunikativ qobiliyat, atrof-muhit, tarbiyachi, badiiy adabiyot, ijodiy fikrlash.*

Barchamizga maʼlumki, uzluksiz taʼlimning mustahkam poydevori boʻlmish maktabgacha taʼlim sohasida ham misli koʻrilmagan ishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev rahbarligiga taʼlim sohasiga, aynan maktabgacha taʼlimga eʼtibor qaratilib, bugungi kun talablariga mos holda qurib foydalanishga topshirilayotgan maktabgacha taʼlim tashkilotlari va ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirishga, ularning bilim darajasini mustahkamlashga qaratilgan bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Uzoq qishloq va ovullarda ham yangi zamonaviy maktabgacha taʼlim tashkilotlarining qurib foydalanishga topshirilgani ham quvonarli hol, albatta. Ilgʻor pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda mashgʻulotlarni tashkil qilish, bolalarning fikrlash doirasini mustahkamlash, ularning qobiliyatlarini vaqtida anglab, kerakli yoʻnalishga yoʻnaltira olish biz boʻlajak pedagoglarning asosiy va ustuvor vazifamiz hisoblanadi.

Maktabgacha taʼlim tashkilotlarida bolalarning badiiy va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda zamonaviy metod va usullar, yangi innovatsiyalar asosida mashgʻulotlarni olib borish, bolaning erkinligini taʼminlash zarur. Bu uchun pedagogdan kreativlik talab qilinadi. Chunki pedagog qanchalik oʻz ustida ishlasa, izlansa, bolalarga mehr berib, ularga yangidan yangi oʻyinlar, metodlar va usullar orqali tushuntirsa bolaning xotirasida bu bilimlar mustahkamlanib qoladi. Kreativlik - serqirralik ijodkorlikdir. Tarbiyachi kreativ boʻlsa bu xususiyat ham tarbiyalanuvchiga oʻtadi. U ham izlanadi, tirishadi. Oʻz maqsadiga erishish uchun harakat qiladi. Bolalar dunyosi keng va goʻzal, faqat uni anglay bilish zarur. Maktabgacha taʼlim tashkilotlarida bolalarning badiiy va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda biz avvalo ijodiy va didaktik oʻyinlardan, badiiy adabiyotlardan, ertaklar, sheʼrlardan, topishmoq, maqol, hikoyalardan, atrof-muhitdan foydalanishimiz mumkin. Ijodkorlik – faoliyatning turli holatlarida paydo boʻladi.

Qiziqish, ilhom, intilish va boshqalar ijodkorlikning inson ongida eng oliy tarzda paydo bo'lishidan, namoyon bo'lishigacha jarayonini o'z ichiga oladi. Ijodiy faoliyat uchun imkoniyatlar ijtimoiy munosabatlarga bog'liq. Zamon talabidan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki, amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari o'z ichiga ijodiy yondoshuvchi, fan, texnika, san'at, ishlab chiqarishning jadal rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadigan yuksak malakali kadrlar tayyorlashga bog'liq. Shunga ko'ra, jamiyat taraqqiyoti talabalaridan kelib chiqqan holda har bir tarbiyalanuvchini ijodkorlik ruhida tarbiyalash muhim va zarurdir. Psixolog olim N.D.Levitov ijodiy faoliyatni tafakkurning mustaqilligi birinchi bo'lsa, o'quv materialining o'zlashtirilishi, tezligi va mustahkamligi ikkinchi mezon asosida vujudga kelishini isbotgan. Pedagogning asosiy vazifalaridan biri barcha bolalarning ijodiy faoliyati har tomonlama rivojlanishining ta'minlaydigan shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Shu bilan bir qatorda muayyan sohalarda chuqur qiziqishlarini, intilish va qobiliyatini namoyon qilayotgan bolalarni aniqlash, ularga bundan keyingi rivojlanishi uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berish lozim. Shu sabab kichik guruh yoshidagi bolalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishga doir shart-sharoitlar yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun pedagogdan bolalar ijodiy faoliyatini rivojlantirishga doir innovatsion faoliyatni tashkil qilish, muntazam bolalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish va ijodiy faoliyatni rivojlantirishda bilishga doir innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda mashg'ulotlarni tashkil qilish talab qilinadi. Shundagina biz ko'zlangan maqsadga erishgan bo'lamiz.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, har bir bolaning qiziqish va qobiliyatlarini hurmat qilish zarur. Maktabgacha yosh ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun ajoyib imkoniyatlar yaratadi. Ijodiy qobiliyatlarning tarkibiy qismlari masalasi bo'yicha turli nuqtai nazarlarni tahlil qilgandan so'ng, xulosa qilishimiz mumkinki, ularni aniqlashga bo'lgan yondashuvlar farqiga qaramay, tadqiqotchilar bir ovozdan ijodiy tasavvur va ijodiy fikrlash sifatini ijodiy qobiliyatlarning muhim tarkibiy qismlari sifatida ajratib ko'rsatishadi. Shundan kelib chiqib, bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning asosiy

yo'nalishlarini aniqlash mumkin: tasavvurni rivojlantirish; ijodkorlikni shakllantiruvchi tafakkur sifatlarini rivojlantirish

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1.Hamroyeva N. Bolalar nutqini ostirishda o'yinlar va sahnalashtirish faoliyatini ahamiyati // Центр научных публикаций (buxdu.uz). – 2020. – Т. 2. – №. 2.

2.Nizomiddinovna H. N., Gulnigor Y. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalar nutqini o'stirishdagi didaktik o'yinlardan foydalanish //boshqaruv va etika qoidalari onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 122-126.

3.Nizomiddinovna H. N. et al. Kichik Maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik vositalari //Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 1318-1322.

4.Toshpo'latov F. U. et al. Bolalarni o'yin texnologiyalari asosida kasb-hunarga qiziqishlarini shakllantirishda rivojlantiruvchi o'yinlar //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 487-491.

5.Kholmurodovich S. C. The spiritual impact of fine arts on personal development and its place and significance today //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2020. – Т. 8. – №. 10

## **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIGA MOSLASHISHIDA O'YIN FAOLIYATINING O'ZIGA XOSLIGI**

*JDPU Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedra katta o'qituvchisi:*

***G.Xamidova.***

*Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi yo'nalishi 2-bosqich*

*magistranti: **F.No'monjonova.***

**Annotatsiya:** Maqolada bugungi kunga yosh bolalarni maktabgacha ta'lim tashkiloti sharoitlariga moslashtirish ko'rsatkichlari, o'yinning

67	<b>Yoriqulova G.S</b> <i>Maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik vositalari.....</i>	256
68	<b>Xamidova G., No‘monjonova F</b> <i>Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotiga moslash-ishida o'yin faoliyatining o'ziga xosligi.....</i>	259
69	<b>Mo‘minova Z.A., Norboyeva Z</b> <i>Tarbiyachi-pedagog nutqining asosiy xususiyatlari.....</i>	263
70	<b>Жумаев А.Қ., Қўзибоева Ф</b> <i>Ўзбек композиторлик ижодиёти тарихида симфоник мусиқанинг ўрни.....</i>	268
71	<b>Rahmonqulova X.B., Boynazarova G., Qadamova G</b> <i>Maktabgacha yoshdagi bolalarga dialogik nutqni o'rgatish.....</i>	272
72	<b>Шерибаев Е.Б., Султангалиева Г</b> <i>Методика использования приёма «шесть шляп мышления» в дошкольном образовании.....</i>	275
73	<b>Умарова Г.У</b> <i>Игры по формированию пространственных представлений у детей дошкольного возраста.....</i>	279
74	<b>Мустафаева З.С</b> <i>Правила речевой культуры педагога.....</i>	284
75	<b>Jumaqulova G</b> <i>Maktabgacha yoshli bolalarda tabiatga muhabbat hissini tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlari.....</i>	288
76	<b>Anorboyeva F.N</b> <i>Bolalarda ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish.....</i>	291
77	<b>Jo‘rayeva Z.S</b> <i>Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijtimoiy – hissiy rivojlantirish asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalash.....</i>	294
78	<b>Gulbayeva M</b> <i>Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarni ma'naviy estetik tarbiyalashda musiqaning o'rni.....</i>	299
79	<b>Xalilova F</b> <i>Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tabiat burchagiga qo'yiladigan talablar.....</i>	303
80	<b>O‘razaliyeva L</b> <i>Tabiatning inson hayotidagi o'rni.....</i>	305